

**HOZIRGI KUNDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DARSLARNI STEAM VA PISA
DASTURLARI ASOSIDA O'RGANISH**

Hamroqulova Asalxon Uygunovna

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali. Boshlang'ich ta'lim fakulteti
1 - bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bu maqola bugungi kunda ta'lim sohasida mavjud bo'lgan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish va chet el tajribalaridan unumli foydalanish haqida.*

Kalit so'zlar: *Finlandiya ta'lim tizimi, O'zbekiston ta'lim tizimi, ta'limdagi o'zgarishlar, ta'limning rivojlanishi, PISA, STEAM dasturlari.*

TODAY, PRIMARY EDUCATION IS BASED ON STEAM AND PISA PROGRAMS.

A student of the first course of the KIUT Samarkand branch

Abstract: *This article is about overcoming some of the shortcomings that exist in the field of education today and making good use of foreign experiences.*

Key words: *Finish education system, Uzbekistan education system, changes in education, educational development, PISA, STEAM programs.*

Shu 2-3 yil oralig'ida "Finlandiya ta'lim tizimi", "Finlandiya ta'jribasi" deyilayotgan jumlar bot-bot tilga olinyapti. Bu tizim qanday tizim o'zi? Bu tizim qanday muvaffaqiyatlarga erishishimizga yordam beradi? Degan savollar tug'ilishi mumkin albatta. Finlandiya ta'lim tizimi, O'zbekiston ta'lim tizimidan ancha farqlidir.

Chunki bizning ta'lim tizimimiz bir qolibga tushib qolgan edi va biz shu qolib asosida undan chetga chiqmagan holda harakatlanishga o'rganib qolgan edik. 2022-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. [1] Farmonda maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasi, xususan Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifasi yuklatildi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlandiyani misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan. [2.3] PISA nima?

O'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga

qaratilgan. Shu bilan birga, hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi. STEAM ta'lim dasturi ham kelajakda innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo'lgan kasblarni egallashga zamin yaratadi va kreativlik mohiyatini anglatadi. STEAM nima degani? Science-tabiiy fanlar. Technology-texnologiyalar. Engineering-muhandislik. Art-san'at. Mathematics-matematika. STEAM dasturi fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, ularni amaliyotda qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi kesishmasida muommolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, kashf etishga yo'naltirish kabi vazifalarni qo'yadi. STEAM dasturi fanlarni bir-biriga bog'lab o'tishni afzal ko'radi. Misol uchun biz bahor haqida matn yozadigan bo'lsak, unda tabiiy fanlarga, texnologiyaga, san'atga, matematikaga misollar keltirib matnimizni kengaytirsak bo'ladi. Bunda bola bitta matndan juda ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va biz bitta fanni o'zida boshqa fanlarni ham tushuntirib o'tishga ulguramiz. Bunda bolaning ma'lumotlar tez esida qolishi va har bir darsni mukammal darajada o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. STEAM dasturi menga juda ham yoqadi. Chunki bu dasturda o'quvchilarning kreativ fikrlash doirasi kengayadi va o'qituvchilarning mukammal darajada dars berish qobiliyati o'sadi. Manashu dasturlar asosida ishlaydigan Finlandiya ta'lim tizimini ko'rib chiqsak. Finlandiya ta'lim tizimi bizning mamlakatimizga ham kirib kelmoqda. Finlandiyada bolalar 7 yoshdan maktablarga chiqishadi va ularning qiziqishlari inobatga olingan holda dars o'tiladi. Ularda boshlang'ich ta'lim 6 yillik. Maktabda o'quvchilar partada majburiy o'tirishmaydi. Ular divanda o'tirib yoki yotib, xohlagan o'quvchilar partalarda o'tirib darsda ishtirok etishadi. Baholash tizimi 10 ballik. Lekin 3-sinfgacha o'quvchilar baholanmaydi. 3-sinfdan keyin o'quvchilar 10 ballik tizimda baholanadilar. Past baho uchun tanbeh berilmaydi. Baho faqat motivatsiya vositasi sifatida qaraladi. Har bir o'quvchiga individual yondashiladi. O'quvchilarga topshiriqlar o'zlashtirish darajasiga qarab beriladi. Agar bola o'zlashtirishga qiynalsa, o'qituvchi u bilan alohida shug'ullanadi. Finlandiyada qo'shimcha dars deyarli yo'q. Chunki mavzuni o'zlashtira olmagan bolalar bilan o'qituvchilar yana alohida shug'ullanadilar. Bizda o'qituvchilar har 3 yilda malakalarini oshirsalar, Finlandiyada esa har hafta 2 soatdan malakalarini oshiradilar. Bizda o'quv dasturi va darsliklar davlat tomonidan belgilansa, Finlandiyada esa o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Asosiy tizim mavjud. Finlandiyada kamdan kam hollarda uyga vazifa beriladi. Chunki ular o'qish joyi faqat maktab deb hisoblashadi. Ular bollalarni ko'p vaqtlarini oila davrasida o'tkazishlarini xohlashadi. O'rmonlarga, dengizga va boshqa joylarga sayohat qilishlarini istashadi. Uyga vazifa berilgan taqdirda ham u juda qiyin tarzda berilmaydi. Masalan; tarixdan buvingiz bilan suhbatlashib o'tgan zamon bilan hozirgi zamonni taqqoslang va undan to'g'ri xulosalar chiqaring shu kabi vazifalar berishlari mumkin. Finlandiyada o'qituvchilarga yordam beruvchi yordamchi o'qituvchilar tayinlanadi. O'quvchilar tushlik, ekuskursiyalar, o'quv qurollari bilan bepul ta'minlanadilar. Barcha harajatlar davlat budjeti tomonidan qoplanadi. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyayev 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo

viloyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan muloqotida alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar "Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kiringach bilinadi. Ularning saviyasi haqida kata muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standartlari bilan 1-4-sinflar uchun darslik qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida ,umuman dunyoda raqobat bardosh hisoblanadi." [3.3] Hozirgi kunda bizda ham o'quv dasliklari bepul tarzda tarqatilmoqda va biz Finlandiya ta'lim tizimiga asta sekinlik bilan yondashib boryapmiz. Yana bir narsani aytib o'tish joizki Finlandiyada qat'iy tartibda belgilangan maktab formasi yo'q. Ularga nima qulay bo'lsa shuni kiyib kelishlari mumkin. Bizda formaga juda katta e'tibor qaratiladi va bilim 2-darajali bo'lib qoladi. Juda ko'p maktablarda eng avvalo forma so'raladi. Vaholanki formasiz o'quvchi yaxshi o'quvchi emasdir go'yo. Bu achinarli holat albatta. Biz hamma narsadan oldin bilimni birinchi o'ringa qo'yishimiz shart va shunda biz rivojlanamiz va katta-katta yutuqlarga erishamiz. Fin o'quvchilarining fikricha, o'quvchilarni yo hayotga ,yo imtihonga tayyorlash lozim. Ular birinchisini tanlashadi. Lekin o'quvchilar 16 yoshida o'rta maktabni tugatish oldidan standartlashtirilgan test topshiradilar. Ular hayotlarida ko'pincha ishlatmaydigan narsalarni o'rganishmaydi. Ular bolaligidan portfolio, shartnoma, bank kartasi ochishni o'rganishadi . Soliq foizini yoki kelgusidagi daromadlarni hisoblay olishni , internetda turli saytlar yarata olishni o'rganishadi. Bu to'g'ri deb o'ylayman. Chunki ular hayotlari davomida o'rganadigan narsalarni to'liq o'rganishadi. Misol uchun biz tayyorlanayotgan imtihonlarga yodlayotgan ma'lumotlarimiz 2-3 yildan keyin esimizdan chiqishi mumkin yoki ularni hayotda qo'llay olmasligimiz mumkin. Hayot yo'llarida qiynalishimiz turli xil to'siqlarga uchrashimiz bu haqiqat. Shunday ekan biz bu tizimni mukammal darajada o'rganishimiz va qo'llay olishimiz kerak deb o'ylayman. Haqiqattan, ham faqat imtihonlar uchun o'qimaymizku. Umuman olganda , Finlandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq , biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi degani emas. Maktab qoidalariga rioya qilish majburiy. O'quvchi barcha o'tkazib yuborgan darslariga qayta o'tirishi kerak bo'ladi. O'qituvchi bergan vazifani bajarmasa , bolaning ota-onasi maktabga chaqirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qaloqlikda ham ayblanmaydi. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatiga befarq qarasa , bola shunchaki keying sinfga o'tmaydi. Sinf dan sinfga qoldiriladi. Bizda esa sinfdan sinfga qoldirish og'izda ishlatiladi xolos . Biz ham shu metoddan foydalanishimiz kerak. Biz bolani hammani oldida urishsak , uni aqliy qaloqlikda ayblasak, bolada o'qishga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. Shu fanga bo'lgan nafrati kuchayishi mumkin. Biz ham sinfdan sinfga qoldirish metodini qo'llasak bola tushunadiki shu fanlarni o'zlashtirmas kekan keyingi sinfga o'tolmasligini tushunib yetadi. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin deb hisoblashadi. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi. Shunisi quvonarliki finlarning farzandlari tunda asabiy zo'riqishdan uyg'onishmaydi, tezroq

katta bo'lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo'q. O'quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o'zlarini qiynashmaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutoala qilishadi, filimlar ko'rishadi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pyesalari yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi. Men O'zbekiston ta'lim tizimini qoralamoqchi emasman shunchaki o'zgartirishlar kiritsak yaxshiroq bo'ladi demoqchiman. Chunki bizning kelajakimiz shu yosh avlod qo'lida. Shunday ekan ularning ta'lim olishlariga jiddiy qarashimiz va sarmoya kiritishimiz kerak. Ularni majburlab kasbga yo'naltirishimiz emas balki ularning har birlarini qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarga yo'naltirishimiz kerak. Shunda davlat rivojlanadi, o'sadi, qaytadan, Navoiylar, Beruniylar, Temuriylar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan.
2. Ibragimov Shavkat M- Finlandiya va O'zbekistonda ta'lim tizimini solishtirma tahlili maqola- Miasto Przyszosci Kielce jurnali 2022
3. Karimova Omina – Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti “Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 1-bosqich talabasi- Finlandiya tajribasi boshlang'ich ta'lim tizimi sohasidagi islohotlar asosida maqola-ISSN 2023